

O'ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI EKSPOZITSIYASINI TARKIBI VA TIZIMI

SamDU magistranti Bobodustov Bobur Mirzaboyevich

O'zbekiston tarixi Davlat muzeyining, mamlakatimizning keyingi taraqqiyoti, xususan, mustamlakachilik davridagi ozodlik uchun olib borilgan kurashlar, ma'rifatparvarlarimizning o'z vatanini ma'rifatli, farovon va ozod qilish uchun olib borgan kurashlari xaritalar, suratlar, rangtasvir vositalari orqali yorqin namoyish etilgan.

Buyuk bobolar, aziz avliyolar merosini asrab-avaylab kelayotgan, ularning hayotbaxsh o'g'itlari asosida o'z milliy qadriyatlarini shakllantirib, avlodlarni shu ruhda tarbiyalayotgan mehnatkash xalqimizga mansub ekanligidan har birimiz cheksiz faxrlanishimiz, unga ta'zim bajo keltirishimiz ham qarz, ham farz¹.

I. Karimov

O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi Markaziy Osiyodagi yirik ilmiy-ma'rifiy muassasadir (1876 y.) Ko'ptarmoqli ilmiy dargoh bo'lgan bu muzey ilmiy-tadqiqot instituti moddiy va ma'naviy madaniy yodgorliklarning bebaho xazinasidir, tarixiy bilimlar targ'iboti markazi hisoblanadi. Muzey 1943 - yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarkibida faoliyat yuritadi.

Muzey ekspozitsiyasiga O'zbekiston hududida qadimiy davrdan hozirgi kungacha bo'lib o'tgan tarixiy-madaniy jarayonlar rivojini hamda bu yerda bunyodga kelgan madaniy merosning jahon sivilizatsiyasi tarixidagi o'rni asos qilib olingan. O'zbekiston qadimiy va boy tarixga ega davlat. Unda jahon taraqqiyotining umumtarixiy jarayonlari, turli-tuman shakllari va namoyon bo'lishining rang-barangliklari bilan birga, faqat O'zbekiston tarixiga xos xususiyatlar va qonuniyatlar o'z aksini topgan. O'zbekiston hududida juda qadimiy makonlarning mavjudligi tarixiy-madaniy izchillikni va uning an'anaviyligini ta'minlovchi muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Shu omil asosida keyinchalik bu hududda davr jihatdan farqlanuvchi ammo etnik va tarixiy-madaniy jihatdan mustahkam aloqada bo'lgan o'ziga xos taraqqiyot bosqichlari shakllandi va rivojlandi.

Ekspozitsiya O'zbekiston tarixining qonuniyatlari va o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda, zamonaviy muzeyshunoslik asoslarida tashkil etilgan. Muzey ekspozitsiya binoning uchinchi va to'rtinchi qavatlariga joylashgan. Umumiy ekspozitsiya ko'lami 2500 kv.m. maydonni tashkil etadi. Ekspozitsiya miqdori 10 mingtadan ortadi.

Ekspozitsiyani bezatishda arxeologik topilmalar, etnografik ashyolar, tangalar, yozma manbalar, fotosuratlar majmuasidan keng va unumli foydalanilgan. Shubhasiz, ekspozitsiya o'zgarib, mukammallashadi, yangi

¹И.А.Каримов. «Ватан озодлиги олий саодат». Т., «Ўзбекистон» 1999й. 19-бет.

eksponatlar bilan boyib boradi. Shu bilan bog'liq holda mustahkam yangi bo'limlar va ko'rgazmalar vujudga keladi.

Kirish zali uchta qavat balandlikda ishlangan bo'lib, binoning ichki qurilishini darhol tushunib olish imkonini beradi.

Ekspozitsiya ibtidoiy tuzum davrini namoyish etish bilan boshlanadi. Eksponatlar, ya'ni ko'rgazmadagi ashyolar, O'rta Osiyo va O'zbekiston hududlari Sharq sivilizatsiyasining eng qadimgi o'choqlaridan biri bo'lganligidan guvohlik beradi. Bular eng qadimgi ajdodlarimiz istiqomat qilgan manzilgohdan topilgan toshdan yasalgan mehnat qurollari va boshqa buyumlar bo'lib, eramizgacha taxminan 1 million yil avvalgi sana bilan belgilangan. Teshiktosh (Surxondaryo viloyati) g'origa dafn etilgan neandertal bola noyob topildi hisoblanadi. Bolaning bosh chanog'i qoldig'idan tiklangan bolaning bosh qismi, o'tkir uchli pichoqsimon va boshqa tosh qurollar ham muzeyda namoyish etilmoqda. Ular yashma, kvarsit va boshqa jinslardan yasalgan. Dioramaga qarab g'orning tuzilishini taxmin qilish mumkin, u yerda neandertallar uchun xos bo'lgan hayot manzarasi o'z ifodasini topgan(eramizgacha 100-40 mingyilliklar).

Yuqori paleolit yodgorliklaridan (eramizgacha 40-12 ming yilliklar) muzeyda Samarqand shahri va Mastchox g'oridagi manzilgohlaridan topilgan buyumlar hamda tosh va suyakdan yasalgan mehnat qurollari qo'yilgan².

Zarautsoy (Surxondaryo viloyati) g'oridagi qoyaga ishlangan rang-barang ov manzaralarining nusxasi, Saymalitosh manzilgohi va boshqa joylardan topilgan tog' takalari tasvirining asl nusxalari, yoyning paydo bo'lishidan tortib spool ixtiro qilinguncha – mezolit davrini (eramizgacha 12-5 mingyilliklar) o'zida namoyon etadi. Tosh asrining so'nggi davri-neolit eramizgacha 6-4 mingyilliklarni qamrab oladi. Buxoro viloyati hududlaridan 45 ta neolit manzilgohi topilgan. Muzeyda mexanik qurollari, spool buyumlar qo'yilgan bo'lib, ular ovchi va baliqchilarning "Kaltaminor" deb ataluvchi eramizgacha 4-3 mingyillikka oid o'ziga xos neolit madaniyati davri haqida tasavvur beradi. Bu yerda Surxondaryo viloyatidagi Sopollitepa va Jarqo'ton topilmalari haqida ma'lumot beruvchi eksponatlar joy olgan. Bu yerdan topilgan buyumlar bronza davriga oid bo'lib, miloddan avvalgi 2-ming yillikka oididir. U yerdan uy-joy qoldiqlari, toshdan, bronzadan, suyakdan yasalgan turli shakl va ko'rinishdagi mehnat qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari, harbiy qurollar, turli taqinchoqlar va sopol idishlar topilgan. Ayniqsa, Sopollitepa madaniyatiga tegishli yodgorliklardan hunarmandchilikning kulolchilik sohasi yuksak rivoj topganligini ko'rish mumkin. O'sha zamon kulolchilik mahsulotlari 3, 5-4 ming yillar mobaynida o'z shakli va tarkibini o'zgartirmay hozirgacha saqlanib qolgan. Sopol idishlar kulolchilik charxida ishlanib, ikki yarusli humdonlarda pishirilgan idishlar juda nafis, chinnidek jarangdor, ko'rinishdan san'at namunasi sifatida go'zallikda tengi yo'q darajada ishlangan.

Farg'onada dehqonchilik taraqqiyotining boshlang'ich pallalarini Chust madaniyati (Namangan viloyati) o'zida aks ettiradi. Bu yerda topilgan buyumlar ushbu mintaqada kulolchilik, temir eritish, toshga va suyakka ishlov berish kabi turli hunarmandchilik namunalari mavjud bo'lganligidan guvohlik beradi.

² Содикова Н. Маданий ёдгорликлар хазинаси. Т. Фан. 1981. 8. 6

Fargʻona vodiysida bronza davriga oid 10 ta yodgorlik namunasi aniqlangan. Soʻx daryosi quyi oqimida topilgan tosh tumor gʻoyat noyob topildi hisoblanadi, u eramizgacha ikkinchi mingyillikka oiddir. Eramizning birinchi mingyilligidayoq Oʻrta Osiyoda dastlabki davlatlar yuzaga keldi. Soʻnggi bronza va ilk temir davrida dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi, keyinchalik Oʻrta Osiyo hududida taraqqiyotning asosiy markazlari boʻlib qolgan uning sohalarida aholi nufuzining shiddat bilan oʻsishi va toʻplanishiga olib keldi. Bular Xorazm, Fargʻona, Zarafshon va Chirchiq havzalari, Baqtriya, Surxondaryo va Qashqadaryo vodiylaridir. Yunon muarrixlari haqida zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto"da xabar berilishicha, ikki ilk davlat tuzumi: Katta Xorazm va Baqtriya saltanati mavjud boʻlgan. Bundan tashqari, yana Sugʻdiyona davlati ham tashkil topgan. Jahonning eng qadimgi diniy taʼlimoti - zardushtiylik aynan mana shu uch viloyat bilan uzviy bogʻliqdir.

Bu davrda sugʻd, xorazm, suriya, turk kabi bir qancha yozuv turlari keng qoʻllanilgan. Ularning namunalari, jumladan, turk yozuvi alifbosidagi jadval namoyishga qoʻyilgan. Zalning markaziy qismida marmar lavh ustida musulmonlarning muqaddas kitobi Qurʼonning 1905-yilda Peterburgda tayyorlangan nusxalaridan biri joy olgan.

Qurʼonning dastlabki nusxasi VII asrda Halifa Usmon (644-656) davrida, uning kotibi Zayd ibn Sobit tomonidan yozilgan. Kitob 353 varaqdan iborat, eni 68 sm, boʻyi 53 sm. Har bir varagʻida 12 misradan Qurʼon oyatlari kufiy xatida bitilgan³.

Arab xalifaligi parchalanishi bilan IX asr boshiga kelib Oʻrta Osiyo hududida mustaqil Tohiriylar (821-873 yillar) va Somoniylar (819-999 yillar) davlatlari yuzaga keladi. IX asrning ikkinchi yarmida Qoraxoniylar davlati bunyod boʻlib, u Oʻrta Osiyo va Sharqiy Turkistonga hukmronlik qila boshladi. Oʻrta asr jahon meʼmorchiligining eng yaxshi namunalari-davlatlarning xaritalari, hukmdorlar nomiga zarb etilgan tangalar, Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi maketi, hunarmandchilik va savdo gullab yashnagan davr X-XII asrlardagi savdo yoʻllari xaritasi, dahma toshlari, moʻjaz suratlar namoyishga qoʻyilgan.

IX-XII asrlar Oʻrta Osiyo xalqlari madaniyatining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu paytda Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino Al-Xorazmiy, Imom al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, At-Termiziy, Burhoniddin Margʻinoniy, Imom al-Moturudiy kabi mashhur olimlar yashagan va ijod qilgan. Ekspozitsiyada ularning ijodiy faoliyatini yorituvchi ashyolar, jumladan, suʼratlar, haykalchalar, ilmiy asarlar qoʻyilgan.

Buyuk falakshunos olim Ulugʻbek, atoqli shoir, davlat arbobi Alisher Navoiy, Hindistonda Boburiylar sulolasi asoschisi, sarkarda, shoir, tarixchi olim Zahiriddin Muhammad Bobur faoliyati bilan bogʻliq hujjat va ashyolar ham namoyishga qoʻyilgan. Amir Temur davrida zarb qilingan tangalarning asl nusxalari oʻrin olgan. Tangalar mis va kumushdan ishlangan boʻlib, tangalarning old tomoniga Qurʼondan kalima yozilgan, atrofiga esa toʻrt halifa: Abu Bakr, Umar, Usmon va Alilarning nomlari yozilgan. Tanganing orqa tomoniga esa Amir Temur va

³ Ўрмонов М. Халифа Усмон Курони. Мозийдан садо. 4(9) 2010. 11 б.

Suyurg'otmishxonlarning nomlari yozilgan. Amir Temur bevosita Chingizxon avlodidan bo'lmaganligi uchun o'zini "Amir" deb ataydi. 1372-88-yillar davomida qo'g'irchoq xon Suyurg'otmish, undan keyin esa uning o'g'li Mahmudxon nomidan tangalar zarb qiladi⁴. Tangalar asosan kumushdan zarb yetilgan bo'lib, og'irlik vazni grammni tashkil qilgan bo'lsa, uni tanga deb atalgan. Tanganing to'rtidan biriga to'g'ri keladigan 1, 5 grammlik kumush tangalar Amir Temur nomi bilan "Miri", mis tangalar "Fulus" deb yuritilgan.

XV asrning ikkinchi yarmida Temuriylar saltanati bir qancha davlatlarga bo'linib ketdi, XVI asr boshlarida ularni Shayboniyxon boshchiligidagi ko'chmanchi qabilalar zabt etdi. Shayboniylar sulolasining so'nggi vakili Abdullaxon Movarounnahrni birlashtirib, poytaxtni Samarqanddan Buxoroga ko'chirdi va xonlik endi Buxoro xonligi deb atala boshladi. XVII asrda Xorazm hududida Xiva xonligi, XVIII asrda Farg'ona vodiysida Qo'qon xonligi vujudga keldi. Ekspozitsiyada xonlar shajarasi, hukmdorlarning tangalari, xonlarning su'ratlari, xaritalar namoyish etilgan⁵.

To'xtovsiz o'zaro ichki urushlar xonliklarning zaiflashuviga olib keldi va XIX asrning ikkinchi yarmida ularni Rossiya zabt etdi. 1867-yilda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi, ko'p o'tmay Buxoro amirligi va Xiva xonligi Rossiya vassalligiga aylantirildi, Qo'qon xonligi esa tarqatib yuborildi.

Ekspozitsiyada shoh qo'shinlarining harbiy yurishlar xaritasi, qurol-yarog'lardan namunalar, fotosu'ratlar, hujjatlar, amirlar va xonlarning su'ratlari namoyish etilgan. Peshtaxtalardan O'rta Osiyo hunarmandchilik asarlari-mis kandakorligi buyumlari, sopol buyumlar, matolar, zardo'zi kiyim-kechaklar, musiqa asboblari joy olgan. Fotosu'rat va hujjatlarda 1917-1941-yillardagi sobiq sovetlarning totalitar davri va jadidlarning milliy-ozodlik harakati aks etgan. Ikkinchi tomondan 1917-yil oktabrida bolsheviklarning hokimyatni egallab olishi, rasman ozod O'zbekiston SSRning e'lon qilinishi o'z in'ikosini topgan.

Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan O'zbekiston frontning eng muhim aslahaxonasi bo'lib qoldi. Ekspozitsiyada mudofaa zavodlari, ularning mahsulorlari fotosu'ratlari, plakatlar, diagrammalar, hujjatlar va boshqa ashyolar namoyish etilgan. Mudofaa jamg'armasi faoliyati, harbiy gospitallarning tashkil etilishi, shuningdek, 1943-yilda Fanlar akademiyasining tuzilishi alohida eksponatlar orqali yoritilgan⁶.

Fotosuratlar va hujjatlar, maketlar, mahsulotlarning namunalari shuni ko'rsatadiki, 1946-1991 yillar davomida O'zbekiston yonilg'i-energiya va ma'dan-xom ashyo zaxiralari yetkazib beruvchi sifatida katta rol o'ynagan. Bu yerda ko'mir, neft, gaz, oltin qazib chiqarilgan, sanoat korxonalari, kimyo inshootlari, paxtachilikda zarur bo'lgan texnika vositalari ishlab chiqaradigan zavodlar qurilgan. O'zbekiston sobiq Ittifoq va O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi davlatlarining asosiy paxta bazasiga aylantirilgan edi.

Shuningdek, mamlakatimizning keyingi taraqqiyoti, xususan, mustamlakachilik davridagi ozodlik uchun olib borilgan kurashlar,

⁴ Алимов Ў. Амир Темур пайзалари. Мозийдан садо // 4 (52) – 2011. 26 б.

⁵ Ўзбекистон тарихи Давлат музейи. Т. Фафур Фулом нашриёти. 2001. 10. б

⁶ Содикова Н. Маданий ёдгорликлар хазинаси. Т. Фан. 1981.11. б

ma'rifatparvarlarimizning o'z vatanini ma'rifatli, farovon va ozod qilish uchun olib borgan kurashlari xaritalar, suratlar, rangtasvir vositalari orqali yorqin namoyish etilgan.

Bugungi kunda muzey fondi Respublikaning hamma viloyatlariga yuborib turiladigan arxeologiya, etnografiya ilmiy safarlarining materiallari bilan doimiy ravishda boyitilmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati

1. И.А.Каримов. «Ватан озодлиги олий саодат». Т., «Ўзбекистон» 1999й.
2. Содиқова Н. Маданий ёдгорликлар хазинаси. Т. Фан. 1981.
3. Ўзбекистон тарихи Давлат музейи. Т. Ғафур Ғулом нашриёти. 2001.
4. Ўрмонов М. Халифа Усмон Курони. Мозийдан садо. 4(9) 2010.
5. Алимов Ў. Амир Темур пайзалари. Мозийдан садо // 4 (52) – 2011.